

CHET TILLARINI O'RGATISHDA MOTIVATSIYANING AHAMIYATI

Ortiqova Umida Hayitboyevna

Samarqand shahar 31-maktab o'qituvchisi

Mirzakamolova Sadoqatxon Sayidaxmadovna

Namangan Davlat Universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola xorijiy tillarni xususan ingliz tilini o'rganish borasidagi samarali usullar va chet tillarini o'rganishning ma'lum muammolarini o'rganib chiqadi. Tillarni o'rganish mobaynidagi ularda shakillanadigan tasavvur va nutq jarayonlari, hamda ular bilan ishlash metodlarining zamonaviyligi va qulayligi borasidagi usullar muhokama qilinadi va tahlil qilinadi. Maqolada o'qituvchilar va ota-onalarning bolalarga chet tilini o'rgatish jarayonidagi turli xildagi qiziqarli usullar yoritib beriladi. Bolalarning ingliz tilini tez o'rganish jarayonining psixologiyasi o'rganib chiqildi. Bundan tashqari o'quvchilarni intellektual salohiyatini yuksaltiruvchi ta'limiy o'yinlar haqida ham ma'lumot berib o'tiladi.

Kalit so'zlar: til o'rganish, ta'limiy o'yinlar, so'z o'yinlari, eshitish qobiliyati, xorijiy til, o'qitish usullari, zamonaviy o'rgatish

THE IMPORTANCE OF MOTIVATION IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES

Abstract: This article explores effective methods of learning foreign languages, particularly English, and some of the challenges of learning foreign languages. Imagination and speech processes formed in them during language learning, as well as modernity and ease of working with them, are discussed and analyzed. The article highlights various interesting methods used by teachers and parents in the process of teaching children a foreign language. The psychology of children's rapid learning of English was studied. In addition, information is provided about educational games that increase the intellectual potential of students.

Keywords: language learning, educational games, word games, listening ability, foreign language, teaching methods, modern teaching

Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rgatish bo'yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo'ladigan yangi tizimni yo'lga qo'yish vaqti-soati keldi. Biz raqobatdosh davlat qurishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bundan buyon maktab, litsey, kollej va oliy o'quv yurti bitiruvchilari kamida 2 ta chet tilini mukammal bilishlari shart. Bu qat'iy talab har bir ta'lim muassasasi rahbari faoliyatining asosiy mezoniga aylanishi lozim,

Shavkat Mirziyoyev

Mamlakatimizda har yili ilm-fanning bir nechta yo'nalishi tanlab olinib, alohida e'tibor bilan rivojlantirilmoqda. Bu yil chet tillari ana shunday ustivor sohalar etib belgilangan.

O'zbekistonning ochiqlik siyosati, dunyo bozoriga faol kirib borayotgani, barcha sohalarda xalqaro hamkorlik kengayayotgani xorijiy tillarni bilishga ehtiyojni oshirmoqda. bugungi kunda yurtimizdagi 25 ta oliy ta'lim muassasasida o'qitish chet tilida olib borilmoqda.

2016 yilda ular atigi 7 ta edi. Xalqaro til sertifikatini olgan bitiruvchi o'quvchilar soni oxirgi 3 yilda 10 baravarga oshgan.

Joriy yilda "El-yurt umidi" jamg'armasi orqali 350 nafar talabaning nufuzli xorijiy universitetlarda o'qishi uchun stipendiyalar ajratildi. Bu o'tgan yillarga nisbatan 5 baravar ko'pdir.

Sohadagi o'zgarishlardan xabardor bo'lib borishlari, yangi adabiyot va qo'llanmalar sotib olishlari uchun har bir chet tili o'qituvchisiga byudjetdan 1 million so'mdan mablag' ajratilishi belgilandi.

Maktabgacha ta'lim vazirligiga YUNISEF bilan hamkorlikda 7 yoshgacha bo'lgan bolalarga chet tillarini o'qitish bo'yicha uslubiy qo'llanma ishlab chiqib, joriy etish vazifasi qo'yildi.

Yig'ilishda oliy ta'lim tizimida mutaxassislar tayyorlash masalasiga ham alohida e'tibor qaratildi.

bugungi kunda oliygohlardagi 78 foiz professor-o'qituvchilarning chet tilini bilish darajasi qoniqarsiz ahvolda ekani ko'rsatib o'tildi.

Yangi o'quv yilidan boshlab, chet tillari bo'yicha qabul kvotalari soni 2 baravar ko'paytirilib, 16 mingga yetkazilishi, davlat granti esa 3 baravarga oshirilishi ta'kidlandi.

Shu bilan birga, kelgusi yildan boshlab, magistratura va doktoranturaga kiruvchilar uchun chet tili bo'yicha xalqaro sertifikatga ega bo'lish talabi kiritiladi. Oliy o'quv yurtlarida mutaxassislik fanlarini xorijiy tillarda o'qitish bosqichma-bosqich joriy etiladi. Tabiiy va texnik fanlar bo'yicha xorijiy darslik va qo'llanmalardan erkin foydalanish yo'lga qo'yiladi.

Pedagogikaning rivojlangan tajribalari hamda ta'limda erishilgan yutuqlarni amaliyotga olib kirish bugungi kunning muhim shartlaridan hisoblanadi. Hozirda o'qituvchi o'z faoliyati davomida foydalana olishi mumkin bo'lgan ulkan tajribalar bazasi shakllangan va u kundankunga yanada boyib bormoqda. Lekin shunga qaramasdan, o'qituvchilar va bo'lg'usi kasb egalari tomonidan ana shu tajribalarni o'zlashtirib olishlari birmuncha mushkullik bilan amalga oshmoqda. Pedagogning mavqeyi ilg'or tajribalarni vujudga keltirishda va ularni kasbdoshlari o'rtasida ommalashtirishda, ayniqsa, ahamiyatlidir. Ta'lim beruvchi yangi ilg'or pedagogik tajribani amaliyotga joriy etishda uning qimmati hamda qay darajada samarali ekanligiga e'tibor berishi kerak.

pedagogik iqlimini yaratish, «qiziqish bilan o'qish» muhitini yaratish bo'lajak chet tili o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi samaradorligini oshirish yo'llarini muloqot psixologiyasi bilan yaqin aloqada izlash kerak degan fikrga olib keladi. O'quvchini kasbiy pedagogik faoliyatga o'qitish jarayonida bir vaqtning o'zida uni kasbiy pedagogik muloqot mahoratlariga ham o'rgatish kerak.

O'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishda tanlangan adabiyotlar, ma'lumotlar - umuman o'rgatiladigan materiallar - shunday bo'lishi kerakki u o'zuda ham leksik-grammatik va stilistik o'zgarishlarni o'z ichiga qamrab olishi bilan bir qatorda og'zaki va adabiy nutq tuzilmalarini ham aks ettirishi kerak.

Chet tilini o'qitishning ilmiy-pedagogik salohiyatini oshirish maqsadida "El-yurt umidi" jamg'armasi orqali xorijiy doktoranturada ta'lim olish uchun yiliga 20 ta o'rin ajratiladi.

Britaniya kengashi, Gyote instituti, Fransuz alyansi, KOIKA, JAYKA, Konfutsiy instituti kabi xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlikni yanada kuchaytirish, nodavlat o'quv markazlarini kengaytirish muhimligi qayd etildi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng, chet tillarini o'rgatishga qiziqish oshdi va yoshlar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratib berildi. Respublikamizda chet tilining o'qitilishi, chet tili o'qituvchilarining bilim va ko'nikmalarini baholashning umumevropa ramkalari tavsianomalari (CEFR) ga mos ravishda yangi usul va talablari ishlab chiqildi. Unga ko'ra umumta'lim maktablari va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun darsliklar yaratildi. Ushbu talablarga mos ravishda o'quv xonalari stendlar va yangi axborot kommunikativ texnikalar bilan jihozlandi.

Chet tili fani to'rt aspectga (o'qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish) bo'linib, ularning har biri bo'yicha alohida tushuncha va ko'nikmalar berilmoqda. Ta'lim jarayoniga zamonaviy innovatsion texnologiyalarini olib kirish orqali ta'lim sifati va samaradorligini oshirishni nazarda tutadi. Xususan, chet tilini o'rganishda bunday axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning bir qancha afzalliklari mavjuddir. Til o'rganish va o'qitishda zamonaviy texnologiyaning roli beqiyosdir. Texnologik vositalardan foydalanish chet tili o'rganishning har bir aspect (o'qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish)ida qo'l keladi. Masalan, tinglab tushunish uchun, albatta kompyuter, player, CD diskarsiz bu jarayonni amalga oshirish mumkin emas. Tinglab tushunish til o'rganishning eng muhim qismlaridan biridir. Bunda o'quvchi bir paytning o'zida so'zlovchining talaffuzi, grammatik qoidalarga rioya qilganligi, so'z boyligi va uning ma'nolariga e'tibor berishi talab qilinadi. Ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishda o'quvchilar ham axborotkommunikatsion texnologiyalarni yaxshi bilish va ulardan foydalana olishi muhim omil hisoblanadi. Chet tilini zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o'rgatish va o'rganish eng samador usullardan biridir. Bu jarayonda, jumladan:kompyuterlardan foydalanganda o'quvchi chet tilidagi video roliklarni, namoyishlarni, dialoglarni kino yoki multfilmlarni ham ko'rishi ham eshitishi mumkin; chet tilidagi radio eshittirishlar va televideniedagi dasturlarni eshitish va tomosha qilish mumkin; ancha an'anaviy usul hisoblanadigan magnitafon va kassetalardan foydalanish; CD pleyerlardan foydalanish mumkin. Bu texnik vositalardan foydalanish o'quvchilarning chet tilini o'rganishlari jarayonini qiziqarliroq va samaraliroq bo'lishini ta'minlaydi.

Yosh omili ko'p yillar davomida muhokama qilinadigan masala bo'lib, uni ko'plab tadqiqot ishlarida ham topish mumkin. Ushbu tadqiqotda havola tanqidiy davr gipotezasiga emas, balki yoshning motivatsiyaga bo'lgan munosabatiga bog'liq. Gap kelganda chet tili yoki ikkinchi tilni o'qitishda vaziyat til darajasidan ancha farq qiladi. Ko'pgina hollarda, katta yoshdagi bolalar maqsadli tilni ilgari o'rganishni boshlaganlarga qaraganda tezroq o'zlashtira oladilar va tushunadilar. Nikolovning ta'kidlashicha, o'quvchilar yoshligida motivatsiya odatda yuqori bo'ladi, lekin vaqt o'tishi bilan u kamayadi. Djigonovich shuni aniqladiki, o'quvchilar ulg'aygan sari ular kamroq ishtiyoqmand bo'lishadi. Singleton Bongaerts va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ishora qiladi va u o'n ikki yoshdan keyin ingliz tilini sinf muhitida o'rgana boshlagan va ona tilida so'zlashuvchilar bilan bir xil darajada ingliz tilini talaffuz qila olgan gollandiyalik o'quvchilar haqida.

Bugungi davr- dunyo globallashuv jarayoni insonlardan xorijiy tillarni o'rganishni talab etmoqda . Shu sababli har bir inson o'z ona tilidan tashqari qo'shimcha xorijiy tillarni

o'rganish ehtiyojini sezadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki bolalikdan til o'rganish boshlash samaraliroq yo'llardan biri ekan.

So'nggi yillarda ingliz tilini o'qitishni boshlash uchun yosh chegarasi tobora qisqartirildi. Qoida tariqasida, to'rt yoshli bola allaqachon darslarga to'liq tayyor deb hisoblanadi.

Ma'lumki, erta yoshning chet tilini o'zlashtirish imkoniyatlari chinakamiga beqiyosdir. Hatto K.D.Ushinskiy ham shunday deb yozgan edi: "Bola biz bir necha yil ichida o'rgana olmaydigan darajada chet tilini bir necha oyda o'rganadi".

Bugungi kunga kelib chet tillari ayniqsa, ingliz tili o'rganishga bo'lgan talab va qiziqish shunchalik kuchaydiki, bog'cha yoshidagi bolalardan boshlab katta yoshdagi mutaxassislargacha ingliz tili o'rganishga harakat qilyaptilar. Bu ijobiy holat albatta, chunki, til o'rganish o'sha tilda gaplashuvchi davlatlar madaniyati, tarixi va urf odatlarini o'rganish bilan birga shaxsiy manfaatlar yo'lida ham eshiklar ochilishiga zamin yaratadi. ²⁷

Bugungi kunda maktablarda interfaol o'yinlar orqali dars o'tish an'anaga aylanib bormoqda. Ma'lumki, darsning turli xil o'yinlar asosida o'tilishi o'quvchilarning imkoniyatlarini namoyish etish, diqqatni jamlash, bilim va ko'nikmalarini oshirish va kuchli bo'lishlarini ta'minlaydi. O'yin texnologiyasidan foydalanishning asosini o'quvchini faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyat tashkil etadi. Psixologlarning ta'kidlashlaricha, o'yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini namoyon qilish, hayotda barqaror o'rnini topish, o'zini o'zi boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi. Har qanday o'yin zahirida umumiy qabul qilingan ta'lim prinsiplari, taktikasi yotishi kerak. O'quv o'yinlariga o'quv predmetlari asos qilib olinishi kerak. O'yinlar jarayonida o'quvchi oddiy darsga qaraganda bu mashg'ulotga qiziqibroq yondashadi va bema'lol faoliyat ko'rsatadi. Ta'kidlash lozimki, o'yin eng avvalo, o'qitishning bir usulidir. O'quvchilar o'yinli darslarga qiziqib qatnashadilar, g'alaba qozonishga intiladilar, o'qituvchi ular orqali o'quvchiga ta'lim-tarbiya ham beradi. O'quvchi inglizcha o'yin o'ynab, gapira olarkanman, tinglab tushuna olarkanman, yoza olarkanman, deb ishonadi, qiziqadi. Ingliz tili darslariga qo'yilgan eng muhim talablardan biri o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishdir. Bugungi kunda ingliz tili o'qituvchilari AQSH, Angliya pedagoglari tajribasiga tayangan holda quyidagi innovatsion metodlardan foydalanib kelishmoqda:

- "Muammoli vaziyat yechimi" (Creative Problem Solving) bu usulni qo'llash uchun hikoyaning boshlanishi o'qib beriladi qanday yakun topishi o'quvchilar, talabalar hukmiga havola qilinadi;

- "Quvnoq topishmoqlar" (Merry Riddles) o'quvchilarga topishmoqlar o'rgatish Ingliz tilini o'rgatishda muhim ahamiyatga ega, ular o'zlariga notanish bo'lgan so'zlarni o'rganadilar va o'ylab topishmoq javobini topadilar;

- "Tezkor javob" (Quick answers) o'tilgan dars samaradorligini oshirishda yordam beradi;

- "Chigil yozdi" ("Warm-up exercises") o'quvchilarni darsga qiziqtirish uchun sinfda har xil o'yinlardan foydalanish;

Xulosa

Chet tili ta'limi, birinchi navbatda, chet tilidagi kundalik uchraydigan, real bilim va ko'nikmalarni o'rganishga chorlashi kerak, lekin aniq bilimlarni ham rivojlanishiga beparvo

²⁷ <https://medium.com/@fotimaabdulaminova/til-organish-kaliti-12a90affbca8>

qaramaslik kerak. Agar biz chet tili ta'limida qo'llaniladigan metodik-didaktik qarashlarga to'xtaladigan bo'lsak, quyidagilarni ta'kidlab o'tishimiz talab etiladi: Dars jarayoni bu nafaqat kommunikativ, balki kelajakda o'rgangan bilimlarni qo'llay olish imkoniyatini beradigan kompetensiyalarni qamrab olishi zarur. Bolalarning ko'pchiligi chet tillarni o'rganishga qishiqishadi. Ularning qishiqishlari, albatta, dars jarayonini tashkil etilishi va bolalarning bu dars jarayonida ma'lum muvaffaqiyatga erisha olishi bilan bog'liqdir. Bu qiziqish yillar davomida birdek saqlanib qoladi deb zikr qilish- bu noto'g'ri, shu sababdan, pedagoglar bu haqida qayg'urishlari, ya'ni o'rginuvchilar darsda quvonchga to'lib, muvaffaqiyatlarga erishib qatnashishlarini ta'minlashi zarur. O'rganilayotgan mavzular ham, shu bilan birga savol-topshiriqlar ham o'rganuvchilar uchun ahamiyatli, qiziqarli va aktual bo'lsagina, dasrning mazmuni hamda maqsadi o'rganuvchilarga tushunarli va esda qolarli bo'ladi. Chet tili o'rganuvchilari chet tili ta'limida o'zga bir til, ma'daniyat bilan to'qnash keladilar. Shu sababdan, mashg'ulotlarda aynan o'sha chet tilga xos bo'lgan autentik materiallardan, o'sha madaniyatni yetkazib bera oladigan matn va dabiyoatlardan foydalanish tavsiya etilad

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.R.Otaboyeva Chet tilini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish va uning samaradorligi.
2. N. Q. Xatamova, M.N.Mirzayeva. "Ingliz tili darslarida qo'llaniladigan interfaol usullar" (uslubiy qo'llanma).
3. M. Xoldorova, N. Fayziyeva, F. Rixsittilayeva. Chet tilini o'qitishda yordamchi vositalardan foydalanish.
4. Мустафоева, С. С. Chet tillarni o'rganish va o'qitish: bolalar tillarni qanday o'rganishadi? / С. С. Мустафоева. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2019. — № 22 (260). — С. 685-686. — URL: <https://moluch.ru/archive/260/59757/> (дата обращения: 05.10.2023).
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 27 maydagi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi . 8 янв. 2018
6. Jalolov J. Chet tili o'qitish metodikasi. 2012, b-67
7. Отабоева, М. Р. Chet tilini o'qitishda zamonaviy innovatsion 4.
8. "Chet til o'qitish metodikasida zamonaviy metodlar" Zayniddin Sanaqulov